Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli pedagoglarning raqamli kompetentligini baholash va rivojlantirish bo'yicha eng mukammal xalqaro tizimlardan biri sifatida e'tirof etiladi [5]. Mazkur model oltita asosiy kompetensiya yo'nalishini o'z ichiga oladi: kasbiy hamkorlik, raqamli resurslardan foydalanish, o'qitish va ta'limni tashkil etish, baholash, ta'lim oluvchilar imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning raqamli kompetentligini rivojlantirish. Musiqa ta'limi nuqtayi nazaridan ushbu komponentlar elektron notatsiya, audio-vizual materiallar, virtual ansambl platformalari va interaktiv musiqiy resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mishra va Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli ham pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim nazariy asos hisoblanadi [6]. Ushbu model texnologik bilim, pedagogik bilim va fan mazmuniga oid bilimlarning integratsiyasini nazarda tutadi. Musiqa ta'limida TPACK modeli o'qituvchining musiqiy bilimlarni raqamli vositalar yordamida samarali o'qitish qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi. Bunday integratsiya natijasida pedagog nafaqat musiqiy nazariyani, balki uni innovatsion texnologiyalar vositasida o'quvchilarga yetkazish metodikasini ham puxta egallaydi.

R. Puentedura tomonidan taklif etilgan SAMR modeli raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish darajasini tavsiflaydi [7]. Modelga ko'ra, texnologiyalardan foydalanish almashtirish (Substitution), takomillashtirish (Augmentation), modifikatsiya (Modification) va qayta yaratish (Redefinition) bosqichlaridan iborat.

Musiqa ta'limida ushbu model elektron partituralar, raqamli audio muharrirlari, virtual laboratoriyalar va onlayn hamkorlik platformalarini qo'llash samaradorligini baholashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda musiqa pedagogikasi bo'yicha olib borilgan xalqaro tadqiqotlar raqamli texnologiyalarning talabalarning ijodiy tafakkuri, musiqiy eshitish qobiliyati, kompozitsion fikrlashi va ijrochilik mahoratini rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan isbotlab berdi [8; 9]. Xususan, Sibelius, MuseScore, Finale, GarageBand, Audacity, Soundtrap va BandLab kabi raqamli platformalar musiqa ta'limida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni integratsiyalash, masofaviy hamkorlikni rivojlantirish hamda individual ta'lim trayektoriyalarini yaratishda keng qo'llanilmoqda.

Milliy pedagogika fanida ham ta'limni raqamlashtirish, pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari keng o'rganilmoqda [10; 11]. Tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning raqamli savodxonligini rivojlantirish, elektron ta'lim resurslarini yaratish, masofaviy ta'limni tashkil etish hamda interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Biroq mavjud ilmiy ishlarda aynan bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi va musiqa ta'limining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq masalalar yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- zamonaviy raqamli ta'lim muhitini yaratish;
- fan mazmuniga mos raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tizimli integratsiya qilish;
- amaliy mashg'ulotlarda musiqiy dasturiy vositalardan foydalanish;
- loyiha va muammoli ta'lim metodlarini qo'llash;
- refleksiv va mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- o'qituvchi va talaba o'rtasida raqamli hamkorlikni rivojlantirish hamda kasbiy faoliyat davomida uzluksiz raqamli rivojlanishni ta'minlash.

Ushbu shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unligi bo'lajak musiqa o'qituvchisining zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning raqamli kompetentligi bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, musiqa ta'limi yo'nalishida raqamli kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini kompleks model asosida o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligini empirik jihatdan asoslash hamda oliy ta'lim muassasalari amaliyotiga mos metodik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslashni maqsad qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularning kasbiy tayyorgarlikka ta'sirini empirik jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivistik ta'lim nazariyasi hamda raqamli pedagogika tamoyillariga asoslandi. Shuningdek, UNESCOning pedagoglar uchun raqamli kompetentlik konsepsiyasi, DigCompEdu modeli, TPACK modeli va SAMR modelining metodologik g'oyalari tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston va xorij olimlarining raqamli pedagogika, kasbiy kompetentlik, musiqa ta'limi metodikasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda pedagoglarning raqamli kompetentligiga oid ilmiy ishlari tizimli tahlil qilindi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitida pedagoglarni tayyorlash, multimedia vositalaridan foydalanish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va innovatsion o'qitish metodlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning metodologik yondashuvlari umumlashtirildi.

Tadqiqot obyekti sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasasining "Musiqa ta'limi" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar tanlandi. Tadqiqotda 84 nafar respondent ishtirok etdi. Shundan 42 nafari 3-bosqich, 42 nafari 4-bosqich talabalari bo'lib, tanlanma maqsadli (purposive sampling) usul asosida shakllantirildi. Ishtirokchilar tadqiqotda ixtiyoriy ravishda qatnashdilar hamda ulardan olingan barcha ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlandi.

Empirik tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatish;
- anketa so'rovi;
- yarim tuzilgan suhbat (semi-structured interview);
- ekspert baholash;
- talabalarning amaliy topshiriqlarini tahlil qilish;
- matematik-statistik tahlil.

Raqamli kompetentlikni baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

- raqamli axborot bilan ishlash kompetentligi;
- raqamli pedagogik vositalardan foydalanish kompetentligi;
- multimedia mahsulotlarini yaratish kompetentligi;
- onlayn hamkorlik va kommunikatsiya kompetentligi;• raqamli xavfsizlik va axborot madaniyati kompetentligi.

Har bir mezon bo'yicha respondentlarning ko'rsatkichlari 5 ballik Likert shkalasi asosida baholandi.

Olingan ma'lumotlar IBM SPSS Statistics 27.0 dasturi yordamida qayta ishlanib, tavsifiy statistika (Mean, Standard Deviation), Cronbach's Alpha ishonchlilik koeffitsiyenti, mustaqil tanlanmalar uchun t-test hamda Pearson korrelyatsiya tahlili qo'llanildi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0,05$ mezoni asosida baholandi (1-jadval).

1-jadval: **Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili (n = 84)**

| Ko'rsatkichlar | 3-bosqich (n=42) M±SD | 4-bosqich (n=42) M±SD | t | p |
|---|---|---|---|---|
| **Raqamli axborot bilan ishlash** | 3,81±0,42 | 4,36±0,39 | -6,18 | 0,001 |
| **Raqamli pedagogik vositalardan foydalanish** | 3,58±0,48 | 4,29±0,41 | -7,21 | 0,001 |
| **Multimedia mahsulotlarini yaratish** | 3,46±0,54 | 4,18±0,46 | -6,57 | 0,001 |
| **Onlayn hamkorlik va kommunikatsiya** | 3,92±0,45 | 4,31±0,38 | -4,29 | 0,001 |
| **Raqamli xavfsizlik va axborot madaniyati** | 3,74±0,47 | 4,23±0,40 | -5,12 | 0,001 |

Jadval natijalari 4-bosqich talabalari barcha mezonlar bo'yicha 3-bosqich talabalariga nisbatan yuqori natijalarni qayd etganini ko'rsatdi. Ayniqsa, "Raqamli pedagogik vositalardan foydalanish" hamda "Multimedia mahsulotlarini yaratish" mezonlari bo'yicha farqlar statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlandi ($p < 0,01$). Ushbu holat kasbiy tayyorgarlik jarayonida amaliy mashg'ulotlar soning ortishi va raqamli texnologiyalar bilan ishlash tajribasining kengayishi bilan izohlanadi.

Cronbach's Alpha koeffitsiyenti α = 0,89 ni tashkil etdi, bu esa qoʻllanilgan diagnostik vositalarning ichki ishonchliligi yuqori darajada ekanligini koʻrsatadi. Pearson korrelyatsiya tahlili esa raqamli pedagogik vositalardan foydalanish kompetentligi bilan multimedia mahsulotlarini yaratish kompetentligi oʻrtasida kuchli musbat bogʻliqlik mavjudligini aniqladi ($r = 0,71$; $p < 0,01$). Shuningdek, onlayn hamkorlik kompetentligi va raqamli axborot bilan ishlash koʻnikmalari oʻrtasida ham statistik jihatdan ahamiyatli musbat bogʻliqlik kuzatildi ($r = 0,64$; $p < 0,01$).

Tadqiqot metodologiyasining muhim jihati shundaki, unda boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining raqamli kompetentligi faqat texnik koʻnikmalar orqali emas, balki pedagogik, metodik va ijodiy faoliyatning uzviy birligi asosida baholandi. Mazkur yondashuv raqamli texnologiyalarni kasbiy faoliyatga integratsiya qilish darajasini kompleks aniqlash hamda ularni rivojlantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlarini belgilash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi ekanligini hamda uning samaradorligi ta'lim jarayonida yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarga bevosita bogʻliqligini koʻrsatdi. Statistik tahlillar asosida aniqlanishicha, 4-bosqich talabalari barcha mezonlar boʻyicha 3-bosqich talabalariga nisbatan yuqori natijalarni qayd etdilar. Ushbu farqlar ta'lim jarayonida orttirilgan amaliy tajriba, pedagogik amaliyotning kengayishi va raqamli texnologiyalardan tizimli foydalanish bilan izohlanadi.

Eng yuqori oʻsish "Raqamli pedagogik vositalardan foydalanish" kompetensiyasida kuzatildi. Bu koʻrsatkich boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining darslarni interaktiv tashkil etish, elektron ta'lim resurslarini yaratish, onlayn platformalar orqali ta'lim jarayonini boshqarish va multimedia vositalaridan foydalanish boʻyicha amaliy tajribasi ortib borayotganligini koʻrsatadi. Ayniqsa, pedagogik amaliyot davomida talabalar taqdimot dasturlari, interaktiv test platformalari, elektron notalar, videodarslar va virtual ta'lim muhitidan foydalanish orqali oʻz kasbiy kompetentligini mustahkamlaganligi aniqlandi.

Multimedia mahsulotlarini yaratish kompetentligi boʻyicha olingan natijalar ham e'tiborga loyiqdir. Tadqiqot davomida respondentlarning aksariyati audioyozuvlarni tahrirlash, videodarslar tayyorlash, elektron notalar yaratish va musiqiy materiallarni raqamli formatda ishlab chiqish boʻyicha dastlabki koʻnikmalarga ega ekanligi kuzatildi. Biroq ayrim talabalar zamonaviy musiqa dasturlarining imkoniyatlaridan toʻliq foydalana olmasligi, raqamli kontentni metodik jihatdan toʻgʻri loyihalashda qiyinchiliklarga duch kelishi aniqlandi. Bu esa oliy ta'lim jarayonida amaliy mashgʻulotlar ulushini yanada oshirish zarurligini koʻrsatadi.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, raqamli axborot bilan ishlash kompetentligining rivojlanganligi boshqa kompetensiyalarning shakllanishiga ham ijobiy ta'sir koʻrsatadi. Axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va tizimlashtirish koʻnikmalariga ega boʻlgan talabalar dars ishlanmalari, musiqiy materiallar va elektron resurslarni tayyorlashda yuqori natijalarga erishgan. Bu esa raqamli savodxonlikning kasbiy kompetentlikning bazaviy komponenti ekanligini tasdiqlaydi.

Onlayn hamkorlik va kommunikatsiya kompetentligining yuqori darajada rivojlanishi ham tadqiqotning muhim natijalaridan biri boʻldi. Respondentlar videokonferensiya platformalari, bulutli texnologiyalar, elektron ta'lim tizimlari va ijtimoiy tarmoqlarning ta'limiy imkoniyatlaridan faol foydalanayotganliklarini bildirdilar. Shu bilan birga, ayrim talabalar masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning ijodiy faolligini ragʻbatlantirish va guruhli musiqiy mashgʻulotlarni samarali tashkil etish metodikasini chuqurroq oʻzlashtirish zarurligini qayd etdilar.

Korrelyatsion tahlil natijalari raqamli pedagogik vositalardan foydalanish kompetentligi bilan multimedia mahsulotlarini yaratish kompetentligi oʻrtasida kuchli musbat bogʻliqlik mavjudligini koʻrsatdi. Bundan tashqari, raqamli axborot bilan ishlash koʻnikmalari rivojlangan talabalarda onlayn hamkorlik va kasbiy kommunikatsiya koʻrsatkichlari ham yuqori ekani kuzatildi. Mazkur natijalar raqamli kompetentlikning barcha komponentlari oʻzaro integratsiyalashgan tizim sifatida shakllanishini anglatadi.

Pedagogik kuzatishlar davomida samarali natija bergan bir qator pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi. Xususan, dars jarayonida loyiha asosida oʻqitish, muammoli vaziyatlardan foydalanish, amaliy laboratoriya mashgʻulotlarini tashkil etish, elektron portfoliolar yuritish, refleksiv topshiriqlarni qoʻllash hamda raqamli platformalarda mustaqil ta'lim faoliyatini yoʻlga qoʻyish talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minladi.

Tadqiqot natijalari asosida boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning quyidagi pedagogik modeli taklif etildi:

1. **Maqsadli komponent** – raqamli kompetentlikni kasbiy tayyorgarlikning ustuvor natijasi sifatida belgilash.
2. **Mazmuniy komponent** – musiqa ta'limi fanlariga raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarini integratsiya qilish.

3. **Texnologik komponent** – interaktiv metodlar, loyiha texnologiyasi, masofaviy ta’lim platformalari va raqamli musiqiy dasturlardan foydalanish.
4. **Faoliyat komponenti** – talabalarning amaliy, mustaqil va ijodiy faoliyatini raqamli muhitda tashkil etish.
5. **Diagnostik komponent** – raqamli kompetentlik darajasini muntazam monitoring qilish va baholash.

Mazkur model komponentlarining oʻzaro uygʻunligi boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining kasbiy rivojlanishini taʼminlaydi hamda ularni zamonaviy taʼlim muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Muhokama natijalari shuni koʻrsatdiki, raqamli kompetentlikni rivojlantirish faqat zamonaviy texnik vositalar bilan taʼminlash orqali amalga oshmaydi. Bunda pedagogik maqsadlarning aniq belgilanishi, oʻqituvchilarning metodik tayyorgarligi, raqamli taʼlim resurslarining sifati, talabalarning motivatsiyasi va refleksiv faoliyatining rivojlanganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun oliy taʼlim muassasalarida raqamli texnologiyalarni oʻquv jarayoniga integratsiya qilish bilan bir qatorda, ularni pedagogik nuqtayi nazardan samarali qoʻllash metodikasini ham takomillashtirish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va amaliyotga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon ekanligini tasdiqladi. Zamonaviy raqamli taʼlim muhiti, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ijodiy faoliyatni qoʻllab-quvvatlash va uzluksiz kasbiy rivojlanishga yoʻnaltirilgan metodik yondashuvlarning uygʻunligi kelajakdagi musiqa oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirishning eng muhim pedagogik shart-sharoitlari hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini nazariy va empirik jihatdan tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya sharoitida musiqa pedagoglarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish zamonaviy oliy taʼlim tizimining ustuvor vazifalaridan biri ekanligini tasdiqladi. Boʻlajak musiqa oʻqituvchisining kasbiy muvaffaqiyati nafaqat musiqiy bilim va pedagogik mahoratga, balki raqamli texnologiyalarni taʼlim jarayoniga maqsadga muvofiq integratsiya qila olish kompetentligiga ham bevosita bogʻliq ekanligi aniqlandi.

Empirik tadqiqot natijalari boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining raqamli kompetentligi bosqichma-bosqich rivojlanishini koʻrsatdi. Ayniqsa, amaliy mashgʻulotlar, pedagogik amaliyot, loyiha faoliyati va mustaqil taʼlim jarayonida raqamli vositalardan muntazam foydalanish talabalarning kasbiy kompetentligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi isbotlandi. Raqamli pedagogik vositalardan foydalanish, multimedia mahsulotlarini yaratish, onlayn hamkorlikni tashkil etish hamda raqamli axborot bilan ishlash koʻnikmalarining oʻzaro uzviy bogʻliqligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining raqamli kompetentligini samarali rivojlantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bogʻliqligi asoslandi:

- zamonaviy va barqaror raqamli taʼlim muhitini yaratish;
- musiqa taʼlimi fanlari mazmuniga raqamli texnologiyalarni tizimli integratsiya qilish;
- elektron notatsiya, audio va video tahrirlash dasturlari bilan ishlashga yoʻnaltirilgan amaliy mashgʻulotlarni kengaytirish;
- loyiha asosida oʻqitish, muammoli taʼlim va interaktiv metodlardan muntazam foydalanish;
- talabalarning mustaqil taʼlim faoliyatini raqamli platformalar orqali qoʻllab-quvvatlash;
- refleksiv tahlil va elektron portfoliolarni joriy etish;
- pedagogik amaliyot jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish boʻyicha metodik koʻnikmalarni mustahkamlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishga taʼsir etuvchi pedagogik shart-sharoitlarning tizimlashtirilgani, ularning oʻzaro bogʻliqligi empirik maʼlumotlar asosida asoslangani hamda ushbu jarayonning konseptual pedagogik modeli ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Taklif etilgan model maqsadli, mazmuniy, texnologik, faoliyat va diagnostik komponentlarning oʻzaro integratsiyasiga asoslanib, boʻlajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- oliy taʼlim muassasalarining musiqa taʼlimi yoʻnalishlari oʻquv rejalari va fan dasturlariga raqamli pedagogika hamda musiqiy dasturiy vositalardan foydalanishga oid maxsus modullarni kiritish;
- boʻlajak musiqa oʻqituvchilari uchun MuseScore, Sibelius, Finale, Audacity, BandLab va boshqa zamonaviy musiqiy dasturlar bilan ishlash boʻyicha amaliy seminar va treninglarni muntazam tashkil etish;

- raqamli ta'lim resurslari, videodarslar, virtual laboratoriyalar va elektron o'quv-metodik majmualarni yaratishga yo'naltirilgan loyiha faoliyatini rivojlantirish;
- pedagogik amaliyot jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash sifati bo'yicha aniq baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi uchun ixtisoslashtirilgan raqamli laboratoriyalar va multimedia studiyalarini tashkil etish;
- professor-o'qituvchilarning raqamli kompetentligini muntazam oshirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining musiqa ta'limidagi didaktik imkoniyatlari, virtual va kengaytirilgan reallik vositalaridan foydalanish metodikasi, adaptiv raqamli ta'lim platformalarining bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligiga ta'siri hamda raqamli pedagogik kompetentlikni baholashning yangi diagnostik mezonlarini ishlab chiqish istiqbolli yo'nalishlar sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Umuman olganda, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim omillaridan biridir. Raqamli texnologiyalarni pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish, innovatsion o'qitish metodlarini qo'llash va uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlash kelajakdagi musiqa o'qituvchilarining kasbiy salohiyatini yuksaltirishga hamda musiqa ta'limining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son[1] Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son[2] Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ–637-son[3] "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
5. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
6. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers (Version 3). – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – 64 p.
7. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.
8. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108. – No. 6. – P. 1017–1054.
9. Puentedura R. R. SAMR: A Model for Educational Technology Integration. – Hippasus, 2014.
10. Koehler M. J., Mishra P. Introducing TPACK // The Handbook of Technological Pedagogical Content Knowledge for Educators. – New York: Routledge, 2008. – P. 3–29.
11. Cabero-Almenara J., Palacios-Rodríguez A. Digital Competence Frameworks for Teachers: A Systematic Literature Review // Education Sciences. – 2020. – Vol. 10. – No. 9. – P. 223.
12. Instefjord E., Munthe E. Educating Digitally Competent Teachers: A Study of Integration of Professional Digital Competence in Teacher Education // Teaching and Teacher Education. – 2017. – Vol. 67. – P. 37–45.
13. Ertmer P. A., Ottenbreit-Leftwich A. T. Teacher Technology Change: How Knowledge, Confidence, Beliefs, and Culture Intersect // Journal of Research on Technology in Education. – 2010. – Vol. 42. – No. 3. – P. 255–284.
14. Bauer W. I. Music Learning Today: Digital Pedagogy for Creating, Performing and Responding to Music. – 2nd ed. – New York: Oxford University Press, 2020. – 272 p.
15. Webster P. R. Computer-Based Technology and Music Teaching and Learning // The New Handbook of Research on Music Teaching and Learning. – Oxford University Press, 2014. – P. 1315–1330.
16. Savage J. Teaching Music with Technology. – London: Learning Matters, 2017. – 208 p.
17. Burnard P., Murphy R. Teaching Music Creatively. – London: Routledge, 2017. – 256 p.
18. G'ulomov S. S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2021. – 320 b.

---
1 https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2 https://lex.uz/ru/docs/-8050769
3 https://lex.uz/docs/-5013007

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №7(2)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.